

XOSIYAT RUSTAMOVA SHE'RIY KITOBLARIDA MAVZULARNING TANLANISHI

Xushnazarova Sevinch

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Xosiyat Rustamova she'riyatida kitoblarining nomlanishi hamda uning ijodiga bag'ishlangan fikrlar haqida so'z boradi. Shuningdek, maqolada Xosiyat Rustamova ijodining o'ziga xos yo'nalishlari xususida fikrlar o'r ganilib, uning ijodini tadqiq etishning ahamiyati yuzasidan taklif va tavsiyalar keltiriladi.

Kalit so'zlar: Millat ruhiyati, adabiyot, she'riyat gulshani, Vatan kuychisi, tarjimashunoslik ilmi.

SELECTION OF SUBJECTS IN KHOSIYAT RUSTAMOVA'S POETRY BOOKS

ABSTRACT

This article talks about the titles of Khosiyat Rustamova's books and thoughts about her work. Also, the article examines opinions about the specific directions of Khosiyat Rustamova's work, and gives suggestions and recommendations regarding the importance of researching her work.

Key words: Nation's spirit, literature, the flower of poetry, the singer of the Motherland, the science of translation studies.

KIRISH

O'zgacha shakllanish va taraqqiyot tamoyillariga ega istiqlol she`riyatining qator o'ziga xosliklari mavjuddirki, ayni shu xususiyatlar unga milliy nazmimiz taraqqiyotida alohida bosqich sifatida qarash imkonini beradi. Bu badiiy hodisaga istiqlol she`riti degan nom ozodlikni orzulagani, istiqlol davrida yaratilgani, mustaqillikni madh qilgani, egaman kishilarning tuyg'ularini aks ettirgani uchungina emas, balki birinchi navbatda, she`rxonga dunyoni o'rganish bilan birga o'zini, o'z ko'nglini taftish etish lozimligini anglatishga uringani uchun ham berilgan atama ekanligini ta`kidlash joiz. Chunki, istiqlol huquqiy atamadan ko'ra ko'proq ruhoniy-ma`naviy tushunchadir. Ya`ni, u kishining tabiatiga ko'chsa, uning ma`naviy sifatiga aylansagina, ijtimoiy, siyosiy va yuridik hodisa sifatida ham qiymat kasb etadi. Shu ma`noda, istiqlol butun o'zbek millatini dunyoga, dunyoni esa o'zbekka yaqinlashtirgan bo'lsa, istiqlol she`riyati har bir o'zbekni o'z ko'ngliga yaqinlashtirdi,

uning adoqsiz labirintlarini, purviqor cho‘qqilarini, tubsiz teranliklarini, xullas, alohida qalbning naqadar poyonsiz va serqirra ekanligini aks ettirdi. Uning har bir qirrasi olam hodisalari qadar murakkab va jilvagar ekanligini anglatdi. Odamni bilish olamni bilishdan mushkulroq ekanligini ifodaladi. Binobarin, shu xil xossalarga ega odamning g‘oyat mukarram zotligi tuydirildi”[1].

ADABIYOTLAR SHARHI VA METODLAR

Yurt ozodligi, qalb hurligini baralla kuylagan Abdulla Oripov, Erkin Vohidov, Rauf Parfi, Shavkat Rahmon, Usmon Azim, Hurshid Davron, Eshqobil Shukur, Abduvali Qutbiddin, Abdulla Sher, Omon Matjon, Azim Suyun kabi shoirlar ortidan Muhammad Yusuf, Sirojiddin Sayyid, G’ulom Mirzo, Iqbol Mirzo, Salim Ashur, Fahriyor, Bahrom Ro‘zimuhammad, Zebo Mirzaeva singari shiddatli avlod ergashdi.

Xosiyat Rustamova ham ana shu shiddatli avlodning betakror vakili sifatida yangi davr adabiyotiga, she`riyatiga o‘zining yangicha uslubi bilan kirib keldi.

U 1971-yilda Namangan viloyati, Chust tumani Olmos qishlog’ida tavallud topdi. Toshkent Davlat dorilfununi (hozirgi O‘zbekiston milliy universiteti)ning jurnalistika fakul’tetini 1993-yili tamomladi.

Ilk she`rlari 1984-yilda respublika o‘quvchilarining eng nufuzli nashri sanalgan «Gulxan» jurnalida, so‘ngra «Namangan haqiqati» gazetasida shoir Ermamat Nurmatovning samimiyo so‘zboshisi bilan e`lon qilingan. Keyin talabalikni oltin damlariga shoiraning hamnafas azim poytaxt adabiy muhiti va adabiy jarayoniga daxldorlik yillari boshlandi. Atoqli shoir, mohir yozuvchi va O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan jurnalist Qo‘chqor Norqobil bilan oilaviy hayotda va badiiy ijodda maslakdosh bo‘lish baxti ijodkor uchun hayot va muhabbat garmoniyasini, ya`ni uyg‘unligi ta`minlandi. «Osmondagi uy» nomli ilk she`riy to‘plami va matbuotdagi chiqishlari orqali she`rxonlarning va keng adabiy jamoatchilikning mehrini qozongan umidli shoira kelajakda o‘ziga bildirilgan ishonchni oqlay oldi[3].

NATIJALAR

Toshkent Davlat dorilfununi (hozirgi O‘zbekiston milliy universiteti)ning jurnalistika fakul’tetini 1993-yili tamomladi. Shoiraning «Osmondosh uy» (1996), «Najot» (2003), «Rido» (2004), «Devor» (2006), «Avgust» (2008), «qo‘rqinch» (2009 o‘zbek va turk tillarida) va «Ertasi yo‘q kunlar» (2010 o‘zbek va turk tillarida), «Ishg‘ol» (2011), «40:0»(2011) she`riy to‘plamlari chop etilgan[4]. Uning she`rlari ingliz, ispan, olmon, rus, turk, ozar va qozoq tillariga tarjima qilingan.

Shoiraning she`riyati hali monografik aspektida to‘la o‘rganilgan emas. Garchi zamонавиъ She`riyat xususida fikr bildirgan adabiyotshunoslarimizning ko‘philigi bugun nazmimizdagi xoslar ro‘yxatiga ijodkor ismi sharifini qo‘sib ketishsa-da,

Xosiyat Rustamovaning poetik olamiga chuqurroq kirib ulgurmadir. Ayrim maqolalarda shoiraning ba`zi she`rlari yoxud satrlari tahlilga tortilgan o`rinlari ham yo`q emas. Ammo X. Rustamova ijodi salmog'i oldida bu tahlilu taqrizlar ummondan tomchi emasmikan?

Bugunga qadar O`zbekiston Xalq shoiri Usmon Azim («Najot» to`plamiga so`zboshi. 2003 y.), O`zbekiston Qahramoni, O`zbekiston va Qoraqalpog'iston xalq yozuvchisi To`lapbergan Qaipberganov («U o`zini kashf etdi», «Rido» to`plami, 2003 y.), shoir Bahrom Ro`zimuhammad («Rang orqali ichkariga», «Guliston» jurnali, 6-son, 2006 y.), taniqli adabiyotshunos Ibrohim G'afurov («Qalb durlari», «Tafakkur» jurnali, 1-son, 2008 y.)lar Xosiyat Rustamova she`riyatini munosib baholashgan va e`tirof etishgan[4].

O`zbek she`riyatiga o`ziga xos yangicha fikr va yangicha uslub tarzini olib kira olgan betakror shoira. Uning she`rlarida birgina ayol qalbining nozik kechinmalaridan emas, balki umumbashariy dardlardan iborat bo`lgan poetik kashfiyotlardan iborat.

Shoiraning she`riyati hali monografik aspektida to`la o`rganilgan emas. Garchi zamonaviy She`riyat xususida fikr bildirgan adabiyotshunoslariimizning ko`pchiligi bugun nazmimizdagi xoslar ro`yxatiga ijodkor ismi sharifini qo'shib ketishsa-da, Xosiyat Rustamovaning poetik olamiga chuqurroq kirib ulgurmadir. Ayrim maqolalarda shoiraning ba`zi she`rlari yoxud satrlari tahlilga tortilgan o`rinlari ham yo`q emas. Ammo X. Rustamova ijodi salmog'i oldida bu tahlilu taqrizlar ummondan tomchi emasmikan?

MUHOKAMALAR

Ijodkorning boshqa odamlardan farqi shuki, u doim o`lim haqida o`yaydi. San`at-o`limni tezroq va ta`sirliroq anglatish vositasi. Fikrimcha, san`atkor- o`limga eng yaqin odam. Bezovalta bo`lsing, jahling bo`lsang chiqsa, mozorga bor deydilar. Mozorni bir marta aylanib chiqqan kimsaning ichidagi nafs itlari bir muddat yuvosh tortadi. San`at bilan mozorning orasida bir ajib yaqinlik ko`raman. Har ikkalasida ham ajdodlar ruhi bilan muloqatga kiriladi. Mozor sukunat, jimlik bilan ruhni tarbiyalaydi, san`at esa mung yordamida kasal tuyg'ularni davolaydi. San`at ham, mozor ham miyada bosiq va ilohiy nurga chulg'angan mulohazalar paydo etadi

Taniqli adabiyotshunos Rahimjon Rahmatning fikricha: “O`zbek she`riyatida Rauf Parfidek o`lim dahshatini tavonga sanchilgan tikon kabi favqulodda his etib, u bilan astoydil baxslashgan shoirni topish qiyin”[5].

Vaholanki X. Rustamova ham Rauf Parfii she`riyatining mantiiqan davomchisi sifatida o`lim haqida ko`p va xo`p qalam tebratayotgan ijodkorlardan. Xosiyat Rustamovaning ko`pgina she`rlaridan rus simvolistlarining nafaslari ufurib turadi. Gyotening fikricha: «Dunyo qanday bo`lsa, shundayligicha qoladi, voqealar

takrorlanadi, bir xalq boshqa xalqlar singari yashaydi, sevadi va xis etadi: shunday ekan, nima uchun bir shoir boshqa shoir singari yozishi mumkin emas?» Buni shunchaki, taqlid o‘rnida ko‘rmaslik lozim.

XULOSA

Xosiyat Rustamova o‘zbek She`riyatiga o‘ziga xos yangicha fikr va yangicha uslub tarzini olib kira olgan betakror shoira. Uning she`rlarida birgina ayol qalbining nozik kechinmalaridan emas, balki umumbashariy dardlardan iborat bo‘lgan poetik kashfiyotlardan iborat. Tuyg’ulari rost, dunyoni badiiy obrazlar orqali so‘zlatib, she`rxonni o‘zgacha dunyoga yetaklaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Muslim J.. Gulshan diyor ko‘chalari: adabiy-badiiy nashr; Toshkent. «Navro‘z» 2014. - 265 bet.
2. Yo‘ldoshev Q.. Istiqlol she’riyatidan she’riy istiqlolga. «Guliston» jurnali. Toshkent. 2002. 5-6 son. 37 bet.
3. Olim Oltinbek. «Bir qushcha so‘raydi mening ruhimda...». «Sharq yulduzi» jurnali. Toshkent.: 2013. 4 – son. 146 - bet.
4. G‘ofurov I.. Qalb durlari. Toshkent.: «Tafakkur» jurnali. 2008. 1 – son.